

SUVDAN SAMARALI FOYDALANISH VA G'O'ZANI YETARLI MINERAL O'G'ITLAR BILAN OZIQLANTIRISH

*Raximov Jo'ra Suyunovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent
(Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti),
Fayzullayeva Zebiniso Radjabboy qizi magistr (Urgench Davlat Universiteti)*

Annotatsiya: Ekinlarni sug'orishni sharbat usulida olib borish suvdan samarali foydalanishda va g'o'zaning mineral oziqani to'liq o'zlashtirishida muhim dasturiy amal bo'lib xizmat qiladi. Sharbat usulida berilgan ozuqa g'o'zaga keskin ta'sir qilib, suvning ortiqcha bug'lanishini kamaytiradi, tuproqqa singishini yaxshilaydi, yerdagi namlikni uzoq muddat saqlanishiga asos bo'ladi.

Аннотации: Орошение посевов соковым методом является важной программой эффективного использования воды и полного усвоения хлопчатником элементов минерального питания. Подаваемая соковым способом оказывает острое воздействие на глубину, уменьшает избыточное испарение воды, улучшает проникновение ее в почву, является основой длительного сохранения почвенной влаги.

Abstract: Irrigation of crops by the juice method is an important program for efficient use of water and complete absorption of mineral nutrients by cotton. Nutrient given in the form of juice has a strong effect on cotton, reduces excessive evaporation of water, improves its absorption into the soil, and is the basis for long-term preservation of soil moisture.

Калит сўзлар: Шарбат, озуқа, ғўза, тупрок, суғориш режими, шарбат суви, минерал озуқа, тажриба даласи.

Ключевые слова: Сок, корм, зерно, почва, режим полива, сок, минеральное питание, опытное поле.

Keywords: Juice, feed, cotton, soil, irrigation regime, juice water, mineral feed, experimental field.

O'zbekiston Respublikasi Paxtachiligida iyun-iyul oylarida bajariladigan qishloq xo'jaligi ishlari mo'l hosildorlikka erishish va hosil sifatining yaxshi bo'lishini ta'minlaydi. Fermerlarimiz tomonidan olib boriladigan asosiy ishlardan biri g'o'zani o'z vaqtida sug'orish va chilpishdan iboratdir. Ilmiy izlanishdagi tajriba dalasining tuprog'i, mexanik tarkibi, sug'orish meyorlari va soni quyidagicha belgilanadi.

Mintaqaning sizot suvlari chuqur joylashgan yerlarda g'o'zaning gullash va hosil tugish davrida sug'orish meyori yengil tarkibli tuproqlarda gektariga 600–900, o'rta va og'ir tuproqlarda 900-1000m³ atrofida rejalashtiriladi. Sug'orish davomiyligi mexanik tarkibi yengil tuproqlarda g'o'zaning gullash davrida 10-12soat, o'rta va og'ir

tuproqlarda 12-14soat, asosiy gullash va hosil tugish davrida esa mos ravishda 14-16 va 16-18soat meyor darajasi deb qabul qilinadi.

Shuni e'tirof etish joizki, g'ozaga suvga kelgan davrda guli yuqoriga ko'tarilishiga yo'l qo'yilmaydi. Yoz oylarida harorat yuqori bo'lganda suv vaqtida berilmasa, g'ozaga suv tanqisligiga uchrab, rivojlanishi past ko'rsatkichda bo'ladi. Ekin dalasini begona o'tlardan tozalamasdan, g'ozaga egatlariga suvni oqizish va sug'orish ma'qul emas. Agar begona o'tlar chopiq qilinmay sug'orilsa ular o'g'itni tez o'zlashtirib oladi va paxta hosildorligini samarasi keskin pasayadi. Bunday hollarda begona o'tlar jadal rivojlanib, g'ozaning hosil shoxlari rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Olib borilgan tajribalardan ma'lumki, g'ozani gullash davrida sug'orishning kechiktirilishi hisobiga 10–15 s/ga paxta hosildorligi kamayishiga olib keladi. Fo'zani sug'orish kechayu - kunduz amalga oshirilishi yaxshi natija beradi, ayniqsa tungi sug'orish suvni 20–25% tejaydi hamda o'simlikning o'sib - rivojlanishi uchun mo'tadil mikroiklim yaratilishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Hamisha sug'orishni sharbat usulida olib borish suvdan samarali foydalanishda va g'ozaning mineral oziqani to'liq o'zlashtirishida muhim dasturiy amallardan biri hisoblanadi. Sharbat usulida berilgan ozuqa g'ozaga keskin ta'sir qilib, suvning ortiqcha bug'lanishini kamaytiradi, tuproqqa singishini yaxshilaydi, yerdagi namlikni uzoq muddat saqlanishiga asos bo'ladi.

Albatta buning uchun har bir dalaning suv taraladigan joyiga sharbat uchun maxsus chuqur qazilib, sug'orishdan 5–7kun oldin 1:1 nisbatda suv bilan go'ng aralashmasi tayyorlanadi, bunda asosan kompostdan ham foydalanish mumkin. Dalaga sharbat suvini berish uchun sug'orishni yakunlashdan oldin suv sarfi oshirilib, sug'orish suvi ushbu chuqur orqali o'tkazilib, suvning rangi to'q jigarrang tusga kiringuncha jija aralashtirilib turiladi va suv egatlar oxirigacha borishi ta'minlanganda maqsadga erishildi deb hisoblanadi va to'xtatiladi. Sug'orilgan maydonlar tuprog'i yetilishi bilan g'ozaga qator oralariga bir meyarda ishlov berish amalga oshiriladi. Agar kultivatsiya kechikib o'tkazilsa, tuproq namligi qochib, yer yorilib ketadi va ishlov paytida g'ozaga ildizi shikastlanadi, o'sib-rivojlanishi keskin pasayadi, hosil bo'lgan nishonalari to'kilib ketadi. Ushbu oylarda g'ozani chilpish asosiy ishlardan biri hisoblanadi.

G'ozani chilpishni o'z vaqtida va sifatli bajarish orqali, g'ozaning o'sib-rivojlanishi tezlashadi, hosil elementlarining to'kilishi kamayadi, gul va ko'saklar soni oshadi, ko'saklarning pishishi 10–15 kunga tezlashadi, hosildorlik 6–8s/ga, hattoki 10–12s/ga oshadi.

Shu sababli g'ozani o'z vaqtida chilpish talab etiladi, bu esa ko'saklar paydo bo'lishi va yetilishini tezlashtiradi, ertangi mo'l va sifatli hosil yetishtirish imkonini beradi, ko'sak qurtining zararini kamaytirib, defoliatsiya samaradorligini oshishiga asosiy omil bo'ladi. Fo'zani o'z muddatida va sifatli chilpish juda katta mehnat va

xarajat evaziga yetishtirilgan hosilning saqlab qolinishiga va uning ko'payishiga, sifatining yaxshilanishiga, ertagi paxta salmog'ining ortishiga olib kelsa, aksincha uning kechiktirilishi, sifatsiz va e'tiborsizlik bilan chala o'tkazilishi yoki o'tkazmaslik oqibatida paxta hosili 20–25% kamayib, pishib yetilishi 10–15 kunga kechikib, ko'saklari kichrayib, vazni ham kamayadi, g'o'za serbarg bo'lib, barglar ko'payib hasharotlarni o'ziga ko'proq jalb etadi. Fo'za paykallarining tuprog'i, g'o'zaning o'sib-rivojlanishi hamda navlariga qarab unumdor tuproqlarda 13–14, o'rtacha unumli tuproqlarda 12–13 va unumdorligi past yerlarda 11–12 hosil shoxi to'planganda chilpish o'tkaziladi.

Shu bois har bir fermer xo'jaligi rahbari va mutaxassislar qo'lda chilpishni boshlashdan oldin dalada ishlovchilar o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borishi va chilpish jarayonida esa nazoratni kuchaytirishlari lozim.

Mexanik usulda chilpishda g'o'zaning uchki o'suv qismi maxsus moslama – kultivator oldiga o'rnatilgan agregat bilan kesiladi, yon shoxlari esa yana qayta chilpiladi. Chilpishning kimyoviy usuli g'o'zaning hosil to'plashi va maqbul o'sishi uchun samarali va qulaydir. Kimyoviy chilpishda Sojean, Entojean, Dalpiks kabi tarkibida mepikvat xlorid bo'lgan preparatlar yuqoridagi tavsiya etilgan chilpish muddatlarida g'o'zani sug'orishdan 5–7 kun avval yoki sug'orishdan 5–7 kun keyin OVX va boshqa purkagich moslamalarda 250–300 l/ga suvga aralashtirilib sepiladi. Shunda dorilar g'o'zaning bargi orqali yaxshi singib, tanasi bo'yicha tarqaladi va o'simlik hujayralarining bo'linishini to'xtatadi, natijada g'o'za birvarakayiga bo'yiga va yoniga o'sishdan to'xtaydi, barglari to'q yashil rangga kiradi, o'simlikning rivojlanishi va hosil to'plashi jadallashib, tupi ixcham archasimon bo'lib, qatorlar orasida havo almashinuvi va mikroiklim yaxshilanadi. Eng asosiysi pishib yetilishi 10–12 kunga tezlashadi, birinchi terim salmog'i 6–7 sentner, umumiy hosil 5–8 s/ga va undan ham ortib, paxtani qisqa muddatlarda yuqori navlarda yig'ishtirib olish imkoni yaratiladi. Kimyoviy chilpishdan keyin qo'lda chilpishga hojat qolmaydi, qo'l mehnatiga barham beriladi, mexanizmda chilpishga nisbatan yonilg'i sarfi 5–6 marta tejaladi.

Chilpish uchun ishlatiladigan yuqoridagi preparatlar kam zaharli, atrof-muhitga va hayvonlarga zararsizdir. Kimyoviy usulda chilpish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: avval traktorning suv baki yarmigacha toza suv bilan to'ldiriladi, so'ngra belgilangan preparat meyorlari ikkala bakka bir xil miqdorda bo'lib-bo'lib solinadi va uning ustidan suv quyilib oxirigacha to'ldiriladi. Traktorning maxsus aralashtirgichi yoki qo'lda biror moslama bilan yaxshilab aralashtiriladi, shundan so'ng dalaga sepishga ruxsat beriladi.

Qashqadaryo viloyatida ekilgan Buxoro–6 va Buxoro–8 g'o'za navlari shoxlanib o'sishini hisobga olib, tuproq unumdorligi past bo'lgan maydonlarda gektariga 110–120 ming ko'chat sonida 11–12, unumdorligi o'rtacha bo'lgan cho'l, yarim cho'l va

dasht hududlarida 100–110 ming tup sonida 12–13, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ekilgan Buxoro–102 navida 95–100 ming ko‘chat sonida 13–14, Namangan–77, Sulton navlarida 110–115 ming tup sonida 13–14 hosil shoxida, tuproq unumdorligi yuqori bo‘lgan yerlarda Buxoro–102 navida 90–100 ming tup sonida 14–15, Namangan–77, Sulton, Beshqahramon navlarida 100–110 ming tup sonida 13–14 hosil shoxida chilpish o‘tkaziladi.

Xorazm viloyatida ekilgan Buxoro–102 navi ekilgan unumdor yerlarda 85–90 ming tup sonida 13–14, o‘rtacha unumdor joylarda 95–100 ming tup sonida 12–13, past unumdor yerlarda 100–110 ming tup sonida 11–12 hosil shoxi to‘planganda, Omad g‘o‘za navida 100–120 ming tup sonida 13–14 hosil shoxida chilpish ishlari o‘tkazilishi tavsiya etiladi.



Xulosa. Chigit qo‘shqator ekilgan barcha hududlarda 10–11 hosil shoxida chilpishni o‘z vaqtida o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Har bir fermer xo‘jaligi o‘z dalalaridagi g‘o‘zalarda yuqoridagi tavsiyalardan kelib chiqib, g‘o‘zani sug‘orish va chilpishni to‘g‘ri hamda sifatli amalga oshirishi o‘ta muhimdir. Ushbu tavsiyalar asosida parvarishlangan g‘o‘za hosili mo‘l, sifati yuqori bo‘lish bilan birga terimni yomg‘irli kunlarga qoldirmay, qisqa muddatda tugallab, mahsulotni yuqori navlarga sotish va pirovardida iqtisodiy samaraning ortishiga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзажанов К.М. Ветровая эрозия в Узбекистане. Сельское хозяйство Узбекистана, 1962, № 3.
2. Мирзажанов К.М. Ветровая эрозия почв на поливных землях и борьба с ней. Ташкент, 1971.
3. Мирзажанов К.М. Ветровая эрозия орошаемых почв Узбекистана и борьба с ней. Изд-во «Фан», Ташкент, 1979.
4. Мирзажанов К.М. Научные основы борьбы с ветровой эрозией на орошаемых землях Узбекистана. Изд-во «Фан», Ташкент, 1981.
5. Мирзажанов К.М., Эшмуратов Б.Х. Теория и методы управления дефляционными процессами в зоне хлопкосеяния Республики Узбекистан, часть I, II, Ташкент, 1994.